

**JADIDLAR G‘OYASI VA TURKISTONDA VA XIX ASR OXIRI-XX ASR
BOSHLARIDA MILLIY HARAKATLARNING KO‘TARILISHI**

E. DAVRONOV

“TERMIZ” DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASI BO‘LIM MUDIRI

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda yurtimiz yoshlarini ma’aviy dunyoqarashini boyitish, ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash masalasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatimiz rahbari tomonidan bu masalaga qaratilayotgan katta e’tiborlar, va yurtimizda XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati, va bu harakatning islom diniga mosligi haqida fikr yuritiladi. Respublika OAV nashrlari talqin etildi. Jadidchilik g‘oyasi yuzasidan chet ellik tarixchi olimlar fikrlari misollar keltirildi.

Tayanch so‘zlar: Jadidchilik harakati, “Ma’rifatchilik”, jadidlar g‘oyasi, milliy o‘zlik, ma’rifatparvar, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari, Turkiston matbuoti, yosh buxoroliklar,

Kirish: Milliy ma’naviyatimiz islom dini bilan uzviy bog‘liq ekanini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham o‘zlarining ko‘plab nutqlarida ta’kidlab kelmoqdalar. Shunday ekan, barkamol avlodni yetuk ma’naviyatli qilib tarbiyalashda dinimizdagi mehr-oqibat, rahm-shavqat, doimo atrofimizdagi kishilardan xabar olib turish kabi hislatlarni yoshlarning qalbiga singdirib, shu asosida ulg‘aytirmog‘imiz zarur bo‘ladi. “Ma’rifatchilik” iborasiga iste’dodli olim Sh.Rizaev alohida urg‘u berib, uni atroficha tahlildan o‘tkazgan.¹ Darhaqiqat, ma’rifatparvarlar asosan ma’rifat homiylari tarzida, «tashqaridan» turib, ya’ni xalqning iste’dodli farzandlarini qo‘llab - quvvatlash orqali va o‘z asarlari yordamida bilvosita faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsalar, ma’rifatchilar bir paytning o‘zida ham homiylar, ham ma’rifatning qora mehnatchilari edi. Nazariy yo‘nalish bilan amaliyotning ana shunday chambarchas bog‘liq holda olib borilishi jadid ma’rifatchilar uchun Ovro‘pa ma’rifatparvarlari asrlar mobaynida bosib o‘tgan yo‘lni bir necha o‘n yil ichida «kesib chiqish» imkonini yaratdi.

Prezident I.A Karimov bu haqida shunday deganlar: - “XX asr boshidagi ma’rifatchilik harakati haqida gapirgandim. O’sha harakatning namoyandalari boylik uchun, shon – shuxrat uchun maydonga chiqishdimi? Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Tavollolarga maktab ochganlari, xalqni o‘z haq – huquqlarini

tanishga da’vat etganlari uchun birov maosh to‘laganmi? Birov ularga oylik bergenmi? Albatta yo‘q! Ular o‘t bilan o‘ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bila turib, ongli ravishda mana shunday yo‘ldan borganlar. Chunki vijdonlari, iymonlari shunga da’vat etgan². Jidid ma’rifatchiligi tom ma’nodagi keng miqyosli uyushgan harakatga aylandi. Yakka-yakka tarzdagi individual homiylikka asoslangan ma’rifatparvarlikka nisbatan u izchilligi, tezkorligi va ommaviyligi bilan butun mintaqani qamrab oldi.

Jadidlar g‘oyasi — Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang. Bu xususda Shavkat Mirziyoyev 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida ham aytib o‘tdilar. “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur... Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergen yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning

¹ Shuhrat Rizo. Ma’rifatparvarlikdan Ma’rifatchilikka.// Tafakkur.J - 1995.-№1. 74-79b

² Karimov I.A. Adolatlji jamiyat sari. - T.: O‘zbekiston. 1998. - 37 b.

g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”, — dedi prezident.³

Mazkur anjumanda tashrif buyurgan nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillariga, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Vengriya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan taniqli olim va ekspertlarning ayrimlarini fikriga e’tibor qaratib o’tsak. AQSHdagi Michigan universiteti professori, vatandoshimiz Temur Xo‘ja o‘g‘li : – Bu yil O‘zbekistonga bir necha marotaba keldim. Oxirgi marta O‘zbekistonga Sharqshunoslik institutidagi doktorlik dissertatsiyasining himoyasida qatnashish uchun kelgan edim. Bu safar 11–12-dekabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tadigan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusida ilmiy konferensiyada qatnashish uchun keldi. Bu konferensiyada Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston, AQSH, Rossiya, Germaniya va Yaponiyadan kelgan olimlar qatnashadi. Bu juda katta qurultoy... Jadidchilik ham maorif, ham davlatchilik va so‘z erkinligi edi. Masalan, Rossiya imperiyasi davrida (1721—1917) jadidlarning shaxsiy nashriyotlari bo‘lgan. Biroq Sovet Ittifoqi (1917—1991) qaror topgach, bu nashriyotlarning barchasini yopib, ularning asoschilarini otuvga hukm qilingan bir vaziyatda jadidchilik harakati Markaziy Osiyo mintaqasidagi uchinchi renessansni yaratmoqchi bo‘lgan. O‘zbekiston rahbarining bunga e’tibor qaratishi juda yaxshi. Chunki butun turkiy millatning taraqqiy etishida aynan jadidlarning g‘oyalari muhim ahamiyatga ega.

Mehmet Tutuncu, tarixchi olim: – Jadidchilik harakati shunchaki oddiy bir harakat emas. Bu harakatning boshlanishida Ismoil Gaspiralining harakatilari bor. Jadidlar Rossiyada yashagan barcha turkiy xalqlarning nega ortda qolganligini va qanday taraqqiy etishi haqida o‘ylagan. Chunki o‘sha vaqtida turk va musulmon dunyosi doim ortda qolib, mustamlakaga uchrayotgan edi. Jadidlar “bundan qanday qutulish mumkin”, degan savolni ko‘targan. Jadidchilik juda muhim harakat. Sababi, unda Islom dunyosining oyoqqa turishi uchun muhim ko‘rsatmalar mavjud.

Barchamizga ayonki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar. Ular shu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib, yangi usul maktablari, nashriyotlar ochdilar, gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yubordilar.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrijiy⁴ asosda tubdan isloh qilish uchun g‘oyaviy va amaliy harakatlar olib bordilar. Bir so‘z bilan aytganda, ular milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar.

Shu bois, Vatanimiz ravnaqi va ozodligi yo‘lida aziz jonlarini fido qilgan ajodolarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o‘rganish hamda targ‘ib etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Davlatimizda ushbu yo‘nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, har yili 31-avgust – Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi faoliyat olib bormoqda. Bu davr tarixiga oid ilmiy va badiiy asarlar, “Tarixning noma’lum sahifalari”, “Qatag‘on qurbanlari” nomli ko‘p jiddli xotira kitoblari nashr etilmoqda. Xalqaro konferensiyalar, ko‘rgazmalar va davra suhbatlari, xotira kechalari, seminarlar muntazam o‘tkazilmoqda. Atoqli ma’rifatparvarlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Bunga misol tariqasida quyidagi farmonga e’tibor qarataylik.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI FARMONI

³ Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtiroychilariga tabrige e’lon qilindi. Tabrik matni Prezident matbuot xizmati tomonidan e’lon qilindi.

⁴ Tadrijiy – bosqichma –bosqich amalga oshiriladigan

Vatanimiz tarixining g‘oyat murakkab davrida – XX asr boshlarida o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqlol, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta’minlashga qo‘sghan beqiyos hissasini inobatga olib, quyidagilar “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlansin:

Abdulla Avloniy (marhum) - ma’rifatparvar adib, pedagog, jamoat arbobi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (marhum) - Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, adib, pedagog va olim.

Munavvar qori Abdurashidxonov (marhum) - atoqli ma’rifatparvar murabbiy, adib, muharrir va jamoat arbobi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.⁵

XIX-XX asrlarning boshlarida Turkistonning ma’rifatli musulmonlarining bir nechta guruhlari, bir tomondan, o‘z xalqlarining milliy madaniyati va siyosiy mustaqilligini tiklashni, boshqa tomondan ularni zamonaviy hayot bilan, jahon svilizatsiyasi va taraqqiyotining yutuqlari bilan tanishtirishni orzu qilib, mavjud vaziyatdan chiqish yo‘lini izladilar. Ular o’sha paytda Rossiya musulmonlari orasida boshlangan “jadidlar” (liberallar-yangilanuvchilar) harakatiga qo’shilishdi. Ushbu harakatning asoschisi Qrim-tatar ma’rifatchisi, yozuvchi, pedagog va jamoat arbobi Ismoil-Bey Gasprali (Gasprinskiy) bo‘lib, u kishi 1883 yildan boshlab Rossiyaning barcha musulmon mintaqalarida mashhur bo‘lgan “Terd-Juman” gazetasini nashr etgan. Harakatning nomi arab-forscha “usuli javid”, ya’ni.yangi usul atamasidan nom oldi. Bu bilan Gasprinskiy 1884 yilda Baxchisaroyda o‘zi boshqargan maktabda joriy etgan arab grafikasida savodxonlikni o‘qitishning yangi (ovozi) usulini nazarda tutgan. Shu bilan birga, O‘rta Osiyo va boshqa ba’zi tarixchilar jadidchilikning kelib chiqishi Buxoroda yashab, taxsil olgan tatar islam islohotchisi Abu Nasr Kursavi (1765-1813) bo‘lgan deb hisoblashadi. Kursavidan yana bir tatar islohotchisi va ma’rifatchisi, qozonlik ilohiyotshunos olim Shihabiddin Marjani estafetani qabul qildi, uning ta’siri ostida esa Gasprinskiy faoliyati boshlandi deb takidlaydigan olimlar ham bor.. O‘rta Osiyoda jadidchilik biroz keyinroq paydo bo‘ldi.

General-gubernator K. P. Kaufman ko‘magida 1884 yildan boshlab Samarqand va boshqa shaharlarda “rus-mahalliy maktablari” ochila boshlanib, ularning maqsadi mahalliy aholiga dunyoviy ta’lim berish va hududning butun ma’rifat tizimini ruslashtirishga ko‘maklashish edi. Ushbu maktablar O‘rta Osiyo elitasini modernizatsiya qilishda va uni Evropa bilimlari bilan tanishtirishda muhim rol o‘ynadi. Biroq, aholining aksariyati ularni “bid’atchi”deb hisoblab, ularni chetlab o‘tishdi. Ammo eski an’anaviy maktablar ham musulmonlar orasida tarqalgan modernizatsiya va yangilanish istagini qondirmadi. Birinchi yangi maktab 1889-yilda Andijonda ochilgan, ammo tez orada yopilgan. Biroq, 1893-yildan boshlab ushbu maktablar soni o‘sishni boshladi.

Ko‘p jihatdan yangi maktab o‘qituvchilarini va bitiruvchilariga tayangan Butunrossiya jadidlar harakati asta-sekin mintaqaviy xususiyatlari bilan ranglana boshladi, u yoki bu tarzda Qrim, Volga bo‘yi mintaqasi, O‘rta Osiyo va Kavkaz mintaqalari holatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirdi.

“O‘rta Osiyo jadidchiligining otasi” deb, publisist, pedagog va yangi uslubli maktablari uchun ko‘plab darsliklar muallifi Mahmud-Xo‘ja Behbudiy (1875-1919) hisoblangan. U nashriyotchi, jurnalist, Islomni modernizatsiya qilish va isloh qilish tarafdoi sifatida ham tanilgan. Rossiya jadidlari, avvalo Ismoil Gasprinskiy va Rizautdin Faxretdinov tajribalariga asoslanib Behbudiy Samarqandda yangi uslub maktabini tashkil etdi, jamoat kutubxonalarini

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.

tashkil etishga ko'maklashdi, matbuotda va ochiq xatlarda jadidchilik va Turkiston avtonomiyasini g'oyalarini tarqatdi. Jadidchilikning taniqli nazariyotchisi, shuningdek, Fitrat (1886-1938) taxallusi bilan tanilgan iste'dodli o'zbek shoiri, publisist va ma'rifatparvar Abdurauf Rahim-o'g'li edi. 1913 yildan boshlab u taniqli dramaturg va amirga qarshi chiqqan yosh buxoroliklar tashkilotining etakchilaridan biriga aylandi.

Yurtimizning ko'plab ziyyolilariga, shu jumladan Behbudiya ham katta ta'sir ko'rsatgan taniqli tojik yozuvchisi, faylasufi va tarixchisi "kalla" laqabli Ahmad Donish (1827-1897) edi. U o'z davrining eng bilimdon odamlaridan biri bo'lib, Buxoroning Sankt-Peterburgdagagi elchixonasi faoliyatida bir necha bor qatnashgan (1857, 1869, 1874), "Risola yoxud mang'itlar sultanatining qisqacha tarixi" bo'lib, XIX asr O'rta Osiyo tarixiga oid muhim manbalarning ahamiyatini saqlab qolgan. U ishlab chiqgan islohotlar loyihasiga ko'ra amirning hokimiyyati cheklanishi kerak edi, amirning o'zi esa Buxoroda matematika, geografiya, tabiiy fanlarni o'z ichiga olgan umumiyy ta'limdi joriy etish orqali xalqni ma'rifat qilish uchun hamma narsani qilishga va'da berishi lozim edi. Donish tabiiy boyliklardan keng foydalanish, rus tili va rus madaniyatini o'rganish tarafidori bo'lgan. Biroq, uning loyihalari hukmron elita tomonidan rad etildi va ruhoniylar Donishni "murtadlik" sifatida qoralashdi. Biroq, keyinchalik jadidlar uni O'rta Osiyoda "jadidchilik harakati peshqadami" deb tan olishdi.

Turkiston jadidlari orasidan Munavvar-Qori Abdurashidov va Ubaydulla Xo'jayev ham ajralib turardi. Ulardan birinchisi, yangi uslub maktabini olib, o'zi maktab uchun darsliklar tuzdi, 1906 yilda Toshkentda "Taraqqi" (Progress) gazetasini, 1907 yilda esa hukumat tomonidan "o'ta zararli so'l yo'nalishda"ligi tufayli yopilgan "Shuhrat" (Slava) gazetasini nashr etdi. Ubaydulla Xodjayev, Abdurashidovdan farqli o'laroq, rossiyaparast (Saratovda o'qigan), taniqli advokat va jurnalist bo'lib, "Sadoi Turkiston" (Turkiston ovozi) gazetasini nashr etgan. U rus esserlariga yaqin edi va dastlab faqat din, madaniyat va ta'lif masalalariga qiziqqan jadidlarni siyosiyashtirishga harakat qilardi.

Umuman olganda, matbuot, ta'lif tizimini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda jadidlар harakatini shakllantirishda katta rol o'ynadi. Turkistonda Jadidizmning ruporlari (targ'ibotchilar) rolini Toshkentdagi "Taraqqi", "Tujor", "Shuhrat" va "Sadoi Turkiston", Samarqanddagi "Samarqand" va "Oyina" jurnallari, Farg'onadagi "Sadoi Fargona", Buxorodagi "Turon" va "Buxororoi-Sharif", gazetalari o'ynagan, shuningdek, Orenburgda taniqli jadid Rizautdin Faxretdinov tomonidan nashr etilgan "Shura" jurnalni Markaziy Osiyo muammolariga katta e'tibor qaratgan. Biroq, aholining ommaviy savodsizligi tufayli jadid matbuoti musulmonlarning keng qatlamlari orasida nufuzli va hatto mashhur emas edi. Bundan tashqari, jadid gazetalarining umri qisqa bo'lib tezda yo'q bo'lib ketardi; "Taraqqi" 1906 yil martdan iyulgacha chiqdi, uning o'rniga "Xurshed" o'sha yilning sentyabridan noyabrgacha, "Shuxrat" 1907 yil dekabrdan 1908 yil fevralgacha chiqdi, 1908 yil apreldan nashri etib boshlangan "Osiyo" gazetasi beshinchi nashrdan keyin yopildi.

Xuddi shu narsani 1909 yildan boshlab rasmiy ravishda madaniy-ma'rifiy, ammo amalda siyosiy xarakterga ega bo'lgan maxfiy jamiyatlar (Toshkentdagi "Taraqqiyaparvar", Qo'qondagi "Gayrat" va boshqalar) haqida ham aytish mumkin. 1909 yilda yangi uslub maktablari yopilgan va jadidlar ta'qibga uchragach, Buxoroda ular rasmiy ravishda ta'lif va aslida siyosat bilan shug'ullanadigan "Tarbiai-atfol" (bolalarni tarbiyalash) yashirin jamiyatini tashkil etishdi. Jamiyatni tashkil etgan 30 kishi bo'lajak yosh buxoroliklar partiyasining tashkiliy negizi edi. Ular orasida keyinchalik tojik adabiyoti klassigi Sadriddin Ayniy, taniqli ma'rifatchi va 1908 yilda Buxoroda birinchi yangi uslub maktabining tashkilotchisi Abdulvohid Munzim Burxonov, Buxoroning taniqli millioneri va ma'rifatchisi Muxitdin Mansurov, yosh buxoroliklarning birinchi dasturining muallifi AbduRauf Fitrat, uning Istanbuldagagi universitetdagi hamkasbi va Buxoro Markaziy saylov komissiyasining bo'lajak raisi Usmonxo'ja Po'latxo'jayev va nihoyat, Moskvada tahsil olgan "yosh Buxoro inqilobchilar" rahbari, Buxoro Xalq Respublikasining bo'lajak rahbari, O'zbekiston xalq qo'mitasi va SSSR

Markaziy saylov komissiyasi raisi Fayzulla Xo'jayev kabi taniqli arboblar bor edi.

Yosh buxoroliklarning yashirin faoliyati asosan noqonuniy hisoblangan yangi uslub mакtablarini yashirin tashkil etish, Rossiyada qonuniy ravishda nashr etilgan musulmon matbuotini tarqatish (Buxoro tatarlari yordamida), Buxoro yoshlarini Rossiyaga va chet elga (asosan Istanbulga) o'qishga yuborish, darsliklar nashr etish uchun "Muqaddas Buxoro shirkati" ni tashkil etish, o'zbek tilida "Turon" va tojik tilida "Buxoroi-sharif" gazetasini nashr etish bilan bog'liq edi.

"Yosh buxoroliklar" harakatining shakllanishida Istanbulda 1908-yilda vujudga kelgan "Buxoro, talim, maorif" buxorolik talabalar jamoasi muhim rol o'ynadi. 1911 yilda "Turon nashri maorif" tashkiloti ajralib chiqdi, u yosh turklar bilan aloqada bo'lib, Buxoroda Usmoniyalar tarafdozlari to'ntarishi va O'rta Osiyoda umumiy qo'zg'olon rejalarini tuzdi. Uning a'zolarining bir qismi shu yo'l bilan O'rta Osiyo xonligini tashkil etishni rejalshtirgan, boshqa qismi Said Ahror boshchiligidagi saylangan prezident bilan respublika tarafdoi bo'lgan. Biroq, 1912-yilda Rossiya bilan aloqalarni saqlab qolish tarafdoi bo'lgan Ismoil Gasprinskiy va Mahmudxo'ja Behbudiy Buxoro muhohirlariga "panturkizm g'oyasini rivojlantirish" va umuman usmonlilarga umid qilmaslikni maslahat berishdi. 1914-yilga kelib, yosh buxoroliklar deyarli an'anaviylar (panturkistlar va panislamistlar) va liberallar-modernistlarga bo'linib kelishdi.

Yosh Buxoriylar ta'siri ostida va ular bilan umumiy platforma (ma'rifat uchun tashviqot, jaholat va obscurantizm, feodal despotizm va qonunsizlikka qarshi) asosida Xivada liberal oqim paydo bo'ldi, keyinchalik u Yosh xivaliklar partiyasiga aylandi. 1910-yilda Xiva liberallari milliy mакtablarni tashkil etish va byurokratik apparatni tartibga solishni talab qilib, "islohotlar loyihasi" ni ilgari surdilar. Ammo hech kim ularni tinglamadi. Xivadagi vaziyat Buxoroga qaraganda boshqacha edi: bu yerda na gazeta, na nashriyot yo'q edi va faqat ikkita yangi maktab, asosan tashrif buyurgan tatarlar uchun faoliyat ko'rsatgan. XX asr boshlari Xivada 5930 nafar ruslar va tatarlar yashagan. Ular xonlikda ma'rifat va madaniyatning rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatdilar. Bundan tashqari, har yili 3 mingga yaqin xivaliklarning Turkistonga ishlash uchun ketishi, keyinchalik ularning qaytishi, Xivaga rus gazetalarining kelishi, shuningdek, Britaniya va Usmonli agenturasining targ'iboti mahalliy aholi ongiga jadidchilik va musulmonchilik islohoti, panislamizm va birozdan keyin panturkizm g'oyalariga kirib borishiga yordam berdi.

Biroq, yosh buxoroliklarga farqli o'laroq yosh xivaliklar o'z yurtdoshlarining asosiy qismidan ajratilgan, ayniqsa, ular siyosiy yoki mafkuraviy emas, balki etnik nizolar tufayli parchalanib ketgan. Davlat apparati va shahar kasblari asosan o'zbeklar qo'lida, iqtisodiy pozitsiyalar ruslar, tatarlar va o'zbeklar qo'lida bo'lgan, turkmanlar, qozoqlar va qoraqalpoqlar esa o'troqlashishga o'tish jarayonida bo'lib yer va suv resurslari uchun o'zbek dehqonchiligiga qarshi kurash olib borishgan. Shu bilan birga, turkmanlar xonlikning harbiy-xizmat qatlamini tashkil etib, hokimiyatga da'vo qilishdi. Bu holat baxonasida chor hukumati tomonidan, rasman tinch dehqonlarni himoya qilish bahonasida, aslida Xivada doimiy keskinlik va etnik adovatni saqlab qolish uchun turkmanlarga qarshi jazo otryadlarini yuborishgan.

Ular yosh xivaliklar haqida faqat 1916-yilda gapira boshladilar 1914-yilgacha yosh xivaliklar vakillari orasida xon kanselyariyasining amaldori Saidaxmad Matmurodov, diniy arbob Babaoxun Salimov va paxta tozalash zavodi egasi Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov eng ko'zga ko'ringan edi.

Xulosa qilib aytganda, hali uyushmagan jadidlar zamona viy taraqqiyot talablariga javob bermaydigan xalq ta'limi tizimini isloh qilish, islam ta'limotini aqidaparastlikdan mosuvo etishdan iborat oddiy ma'rifiy va madaniy ishlarni maqsad qilib qo'yadilar. Chunki ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda mutaassiblik, johillik, xurofotning hukmronligi, o'quv uslubining o'ta ibridoiy va qoloqligi, aniq maqsadlar aks etgan dasturlarning yo'qligi mакtab va madrasalarda asosan diniy ta'limga e'tibor berilayotganligiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga,

o‘quv muassasalarining rasman ruhoniylar ixtiyorida bo‘lganligi va ularning ko‘pchiligi o‘ta mutaassibligi ta’lim tizimini isloq qilishga, islom ta’limotining o‘zini qotib qolgan aqidaparaslikdan xalos qilishga imkon bermas edi.

Tadqiqotni jarayonida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari: “Jadidlarning milliy davlatchilikka qo‘sghan hissasini o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda. Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir” degan fikrlari tong manoda bizni uylantirib, bu borada ilmiy izlanishlarni davom ettirib, tadqiqotlar natijasini keng ommaga yetkazishimiz vazifasini yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. . Shuhrat Rizo. Ma’rifatparvarlikdan Ma’rifatchilikkacha.// Tafakkur.J - 1995.-№1. 74-79b
2. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. - T.: O‘zbekiston. 1998. - 37 b.
3. Abdulloh ash-Shoshiy. Jadid va qadim nedur? // Sadoyi Turkiston. –1914-yil 23-may. – № 12.
4. G‘ozi Yunus. Eski maktabalar haqinda // Ishtirokiyun. –1919-yil 25-iyun. –№ 129.
5. G‘ozi Yunus. Madrasalarimizda islohot // Turkiston. –1923-yil 6-fevral. –№ 57.
6. Bahrom Irzayev. Turkiston jadidlarining ko‘mak tashkiloti. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi. 2016.
7. Qosimov Begali. Milliy uyg‘onish .- T: Ma’naviyat. 2002.- 5b.15. Gasprali I.